XALQ DEPUTATLARI TOYLOQ TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2025-yil 1-fevral VII-6-12-7-104-K/25 Toyloq tumani

2025-yilda Toyloq tumani bo‘yicha suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun bazaviy soliq stavkalariga qo‘llaniladigan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun xujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1014 sonli Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalariga, Soliq qo‘mitasining 2024-yil 15-noyabrdagi 24-117005-sonli, tuman soliq inspeksiyasining 2025-yil 10-yanvardagi 3-sonli, tuman iqtisodiyot va moliya bo‘limining 2025-yil 8-yanvardagi 01/01/10-sonli xatlariga hamda O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6- va 24- moddalariga asosan, xalq deputatlari tuman Kengashining yettinchi chaqiriq, oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasining 2024-yil 24-dekabrdagi “Soliq va budjet siyosatining 2025-yilga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari qabul qilinganligi munosabati bilan O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun xujjatlariga qo‘shimcha va o‘zgartirishlar kiritish to‘g‘risida”gi O‘RQ-1014 sonli Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksining 445, 452-moddalari rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Tuman soliq inspeksiyasi hududlarning iqtisodiy rivojlanganlik darajasi hamda tuman hokimligining 2025-yil uchun belgilangan mahalliy budjet prognozidan kelib chiqib, tuman bo‘yicha 2025-yilda suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq va yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq stavkalarining mutlaq miqdorlariga nisbatan kamaytiriluvchi va oshiriluvchi koeffitsiyentlarni qo‘llash bo‘yicha takliflari inobatga olinsin.

2025-yil uchun Toyloq tumani hududida yer qaridan foydanilganlik uchun soliq stavkasi 1-ilovaga hamda suv solig‘i stavkasi 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

Bunda, xalq deputatlari tuman Kengashiga ushbu qarorning 1-2-ilovalariga asosan belgilangan soliq stavkalariga nisbatan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsientlarni qo‘llash tavsiya etilsin.

3. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari J.Xo‘jamurodov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (A.Sharipov), tuman soliq inspeksiyasi (Z.Sindorov) bilan birgalikda mazkur qaror o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

4. Maskur qaror tuman hokimligi axborot xizmati, va “Qo‘shchinor”gazetasi tahririyati (M.Yuldashova) tomonidan ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

5. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining mahalliy budjet, tadbirkorlikni rivojlantirish va iqtisodiy islohatlar masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (F.Sidikov) hamda tuman hokimining birinchi o‘rinbosari (J.Xujamurodov) zimmasiga yuklatilsin.

6. Ushbu qaror qabul qilingan kundan e’tiboran kuchga kiradi.

Kengash raisi



BABONAZAROV
BAXODIR
KADIROVICH

Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining
2025-yil 1-fevraldagi
VII-6-12-7-104-K/25 -son qaroriga
1-ilova

Toyloq tumani hududida yer qaridan foydanilganlik uchun soliq stavkasi

So‘mda

T/r.	Hudud nomi	Arralanadigan xarsangtosh, xarsangtosh, ohaktosh-chig‘anoq, ohaktosh (syement va ohak ishlab chiqarish uchun mo‘ljallangan ohaktoshdan tashqari), dolomitlar, qurilishda ishlatiladigan mayda toshlar, bazalt, granodioritlar, granosiyenitlar, siyenitlar, porfiritlar, diabaz-porfiritlar, gabbro, slanes jinslari, karbonat xom ashyosi, travertin					Tabiiy bezaktoshdan bloklar				
		2024-yil stavka (amalda)	2025-yil qonun loyihasi bo‘yicha soliq stavkasi	Koeffisiyent taklifi		Soliq stavkalari o‘zgarishi	2024-yil stavka (amalda)	2025-yil qonun loyihasi bo‘yicha soliq stavkasi	Koeffisiyent taklifi		Soliq stavkalari o‘zgarishi
				1,3 gacha oshirish vakolati berilgan	Kutilayotgan soliq stavkasi loyihasi				1,3 gacha oshirish vakolati berilgan	Kutilayotgan soliq stavkasi loyihasi	
1	Tayloq tumani	5 600	6 160	1,00	6 160	110%	5 600	10 000	1,00	10 000	179%

Davomi

Marmar					Granitlar				
2024-yil stavka (amalda)	2025-yil qonun loyihasi bo‘yicha soliq stavkasi	Koeffisiyent taklifi		Soliq stavkalari o‘zgarishi	2024-yil stavka (amalda)	2025-yil qonun loyihasi bo‘yicha soliq stavkasi	Koeffisiyent taklifi		Soliq stavkalari o‘zgarishi
		1,3 gacha oshirish vakolati berilgan	Kutilayotgan soliq stavkasi loyihasi				1,3 gacha oshirish vakolati berilgan	Kutilayotgan soliq stavkasi loyihasi	
5 600	20 000	1,00	20 000	357%	5 600	30 000	1,00	30 000	536%

Davomi

Gips toshi, gips va angidrid, ganch					G‘isht-cherepisa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar				
2024 yil stavka (amalda)	2025 yil qonun loyihasi bo‘yicha soliq stavkasi	Koeffisiyent taklifi		Soliq stavkalari o‘zgarishi	2024 yil stavka (amalda)	2025 yil qonun loyihasi bo‘yicha soliq stavkasi	Koeffisiyent taklifi		Soliq stavkalari o‘zgarishi
		1,3 gacha oshirish vakolati berilgan	Kutilayotgan soliq stavkasi loyihasi				1,3 gacha oshirish vakolati berilgan	Kutilayotgan soliq stavkasi loyihasi	
14 500	15 950	1,00	15 950	110%	4 200	4 620	1,20	5 544	132%

Davomi

Qum-shag‘al aralashmasi, qurilish qumi, qumtoshlar				
2024 yil stavka (amalda)	2025 yil qonun loyihasi bo‘yicha soliq stavkasi	Koeffisiyent taklifi		Soliq stavkalari o‘zgarishi
		1,3 gacha oshirish vakolati berilgan	Kutilayotgan soliq stavkasi loyihasi	
4 200	5 000	1,30	6 500	155%

Xalq deputatlari Toyloq tumani Kengashining
2025-yil 1-fevraldagi
VII-6-12-7-104-K/25 -son qaroriga
2-ilova

2025-yil uchun Suv resurslari uchun soliq stavkalari

So‘mda

T/r.	Hududlar nomi	Iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi korxonalar (2-bandda ko‘rsatilganlar mustasno), shu jumladan sanoat korxonalari, yakka tartibdagi tadbirkorlar va tadbirkorlik faoliyati va (yoki) daromad olish uchun mo‘ljallangan, yashash uchun mo‘ljallanmagan ko‘chmas mulk ob’yektlariga ega bo‘lgan jismoniy shaxslar									
		2024 yil stavka (amalda)		2025 yil qonun loyihasi bo‘yicha soliq stavkasi		Koeffisiyent taklifi				Soliq stavkalari o‘zgarishi	
						0,7 dan 1,5 gacha koeffisiyent qo‘llash vakolati berilgan		Kutilayotgan soliq stavkasi loyihasi			
		yer usti	*yer osti*	*yer usti*	*yer osti*	*yer usti*	*yer osti*	*yer usti*	*yer osti*	*yer usti*	*yer osti*
1	**Tayloq tumani**	638	760	700	850	1,20	1,20	840	1 020	132%	134%

Davomi

Avtotransport vositalarini yuvish uchun ishlatilgan suv hajmi									
2024 yil stavka (amalda)		**2025 yil qonun loyihasi bo‘yicha soliq stavkasi**		**Koeffisiyent taklifi**				**Soliq stavkalari o‘zgarishi**	
				0,7 dan 1,5 gacha koeffisiyent qo‘llash vakolati berilgan		**Kutilayotgan soliq stavkasi loyihasi**			
yer usti	***yer osti***	***yer usti***	***yer osti***	***yer usti***	***yer osti***	***yer usti***	***yer osti***	***yer usti***	***yer osti***
2 700	2 700	15 000	15 000	1,20	1,20	18 000	18 000	667%	667%

Davomi

Alkogolsiz ichimliklarni hamda (pivo va vinodan tashqari) alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun foydalaniladigan suv hajmi									
2024 yil stavka (amalda)		**2025 yil qonun loyihasi bo‘yicha soliq stavkasi**		**Koeffisiyent taklifi**				**Soliq stavkalari o‘zgarishi**	
				0,7 dan 1,5 gacha koeffisiyent qo‘llash vakolati berilgan		**Kutilayotgan soliq stavkasi loyihasi**			
yer usti	***yer osti***	***yer usti***	***yer osti***	***yer usti***	***yer osti***	***yer usti***	***yer osti***	***yer usti***	***yer osti***
34 160	34 160	38 000	38 000	1,20	1,20	45 600	45 600	133%	133%